



TAXOR VILOYATI KISHI ISMLARINING SHAKLLANISHI VA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATIGA KO'RA TASNIFI

Esmati Najeebullah

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU

Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi 2-kurs magistranti,

E-mail: najeeb.esmati@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6469491>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-aprel 2022

Ma'qullandi: 10-aprel 2022

Chop etildi: 15-aprel 2022

KALIT SO'ZLAR

kishi ismi, ism qo'yish, ismlarning shakllanishi, xalq an'analari, xalq qadriyatlar.

ANNOTATSIYA

Bu maqola Afg'oniston Respublikasining Taxor viloyati aholisi kishi ismlarini o'rganishga bag'ishlangan. Bu maqola materiallari aholi orasida faol qo'llanadigan kishi ismlaridan tanlanib, ularning shakllanish masalasiga aholi qatlamlari orasidagi ism qo'yishga doir an'ana va e'tiqodlarga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ism qo'yishning omil va sabablariga to'xatalib, ular tilshunoslik/onomastik fanlari qonuniyatlari asosida tasnif qilingan. Tasnif qilishda ismlarning shakllanishida nomlanish talabi, xalq qadriyatlar, turli tel elementlari kabi faktlar asosiy rol o'ynaganligini inobatga olingan.

Ismlarning nomlanish talabi va nomlanish asoslariga ko'ra shakllanishi haqida gapirganda, oilada farzand dunyoga kelishidan boshlash kerak. O'rta Osiy xalqlarida, xususan, Afg'onistonda, otalalar farzandli bo'lishi bilan ism qo'yish muammosi paydo bo'ladi. Chunki, hamma ismlar qo'yilavermaydi. Xalqda yosh bolalarni va kishilarni nomlash talabi bor. Bu talab: *miliylik, an'anaviylik, ma'nolilik* kabilardir. Shu o'rinda takidlash kerakki, ismlar apellyativ (nutqda faol qo'llanadigan so'zlar leksikasi) va onomastik (nomlash uchun tanlangan so'zlar leksikasi) leksik qatlamdan tanlab olinib, chaqaloqlarga, yoshlarga ism sifatida beriladi.

Demak, nomlanish talabi yuqorida ko'rsatilganidek, xalq *an'anas, milliyli, qadriyati* bilan jamuljam bo'lishi kerak.

Nomlanish asoslari deganda, ism uchun tanlanadigan so'zlarning ham onomastik leksikadan, ham apellyativ leksikadan tanlanishidir. Masalan, *Muhammad* ismi onomastik leksikadan tanlangan. Sababi *Muhammad* so'zi o'zlashma qatlamga oid ekanligiga qaramay, Afg'oniston xalqi ko'p qo'llaydigan va xohlaydigan ismlardan biridir. Chunki, bu ism Afg'oniston musulmon xalqining diniy qadriyati bilan bog'liq.

Bizningcha inson farzandiga beriladigan ismlar quyidagi talablar bo'yicha qo'yiladi:

1. Xalq an'analari asosida ism qo'yish.

Qadim zamonlardan beri odamlar ismga katta ahamiyat berishgan. Bu har doim ham shaxsning muhim tarkibiy qismi bo'lib kelgan va uning mazmuni tashuvchining ichki ma'nosi bilan bog'liq. Ota-bobolarimiz



bu ism odamning taqdiriga ta'sir qiladi deb ishonishgan, shuning uchun ularning tanloviga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishgan.

Birinchi ismlar ataylab o'ylab topilmagan. Jamiyat rivojlanishining dastlabki bosqichida, odam jamoalarda birlashib, omon qolish osonroq ekanini tushunganida, butun qabilani emas, balki kimnidir chaqirish uchun ismlar kerak edi va o'sha paytda ovoqli ma'lumotlar muvaffaqiyatli rivojlanayotgan edi. Odamlarni ko'rsatish uchun ular atrofdagi dunyo hodisalari uchun har qanday "qulay" ismlardan foydalanganlar, masalan, hayvonlar, o'simliklar, samoviy jismlar, suv omborlari, fasllar. Qadimgi odamlar ismlarining kelib chiqishining yana bir manbai, kishilarning o'ziga xos xususiyatlari, ayniqsa uning tabiiy xislatlari, xulq-atvori, turmush tarzi bo'lgan.¹

Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'sha paytda odamlar shaxsiy ism egasining taqdiri ustidan kuch borligiga ishonishgan. Shuning uchun ular yaxshi narsani anglatadigan ismlarni o'ylab topdilar. Ular eng yaxshi fazilatlar omad topishga yordam beradi deb ishonishardi. Masalan, agar hayvonning ismi ism sifatida ishlatilgan bo'lsa, u kuchli, epchil, jasur hayvon bo'lishi kerak edi.

Ko'p madaniyatlarda yangi tug'ilgan chaqaloqqa ikkita ism berilgan. Birinchisi haqiqiy deb hisoblangan va faqat oilaning tor doirasida ma'lum bo'lgan, ikkinchisi umumiy foydalanish uchun bo'lgan, shuning uchun hech kim bolaga haqiqiy ismini bilib, zarar yetkaza olmas edi.

Kishi ismlari turkiylar madaniyati tarixida muhim o'rin tutgan. Ikki ismlilik an'anasini ham bularda ko'rish mumkin. Masalan, turkiy xalqlardan bo'lgan yoqutlarda bolaga bolaligida berilgan ism haqiqiy ism deb hisoblanmaydi. Haqiqiy nom, unga kamon tortib, o'q otganidan keyin beriladi. Yoqutlarning bu odati o'g'uzlar orasida ham uchraydi.² Dada qo'rquq dostonining hikoyalaridan birida "bola ism olishi uchun muhim ishni bajarishi yoki qahramonlik ko'rsatishi"³ kerakligi aytilgan.

Qadimgi Hind madaniyatida ham ikki ismlilik an'anasini uchratish mumkin. Masalan, hind qabilalarida yovuz ruhlardan qochish uchun jirkanch ismlar berilgan. Yigit o'zining haqiqiy ismini meditatsiya va ruhlilar bilan muloqot orqali voyaga yetganida taniydi va boshqa hech kimga aytmaydi. Qadimgi shamanlar bu ismni oddiy odam tovushlari bilan talaffuz qilish mumkin emas, deb ishonishgan, u faqat tasvir va tovush aralashmasida mavjud bo'lgan.

Qadimgi yunonlar Quddratli Xudoning marhamatidan umid qilib, bolalarini xudolar va qahramonlar sharafiga nomlashgan. Ammo bolalarni shunga o'xshash ismlar bilan chaqirish befarq deb hisoblanar edi, chunki Olympus aholisiga bunday tanishlik yoqmasligi mumkin edi. Shuning uchun, turli epitetlar odatda xudolarga murojaat qiladigan nomlarga aylantirildi. Masalan, Viktor (g'olib),

² İnan A. *Tarihte ve bugün Şamanizm*. -Ankara: TDK Yayınları, 1972, -173 s.; Sakaoğlu S. Türk ad bilimi I. -Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2001.; Sartaş S, Balıkesir üniversitesi öğrencilerinin günümüzdeki adlar ve ad verme hakkındaki görüşleri. Balıkesir Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi, 2009, 12 (21), 422-433 s.

³ Gökyay O. Ş. *Dedem Korkudun kitabı*. Birinci Basım. -İstanbul: Kabalcı Yayınevi, 2007, -28, 60, 62 s.

¹ Paşayev A. Azərbaycan antroponimikası. -Bakı: "Elm və təhsil", 2015.



Maksim (eng buyuk). Bunday epitettar bilan ular Zevsga murojaat qilishardi.⁴ Bu fikrda ismlarning qanchalik ahamiyatga egaligi o'z ifodasini topgan.

An'ana asosida bolaga ism qo'yish o'zbek va afg'on xalqlarida ham uchraydi. Afg'onistonda, ayniqsa, biz o'rganayotgan viloyat antroponimlarida bunday ism qo'yish an'anasida yuzaga kelgan ismlar borligi yaqqol ko'rinib turibdi. Ism qo'yish bo'yicha ota-bobolarimizdan bizga yetib kelgan quyidagi an'ana va udumlar bor. Bular bugungi kunda biz uchun ism ham qo'yishning ishonchli manbai sanaladi deb tushunamiz:

1) *bolaga tug'lishdan oldin ism qo'yish an'anasida*. Bizga meros qolgan udumlardan biri bola tug'ilmasdan oldin unga ism topib qo'yishdir. Ota-ona bo'lajak farzandiga u dunyoga kelmasdan oldin ism tanlab qo'yadilar. Bola tug'ilishi bilan o'sha ism uning ismiga aylanib ketadi.

2) *bolaga qaysi oyda tug'ilishi bilan bog'liq ism qo'yish an'anasida*. Ajdodlarimizdan bizga yetib kelgan an'analardan yana biri chaqaloqqa qaysi oyda tug'ilishi bilan bog'liq ism qo'yish an'anasidir. Masalan, bola Qamariy oylarning qaysi birida dunyoga kelsa, unga o'sha oy nomi ism sifatida tanlanadi. Misol uchun, *Ramzon, Rajabgul, Rajabbek, Safarmat* kabi ismlar. Bu shaxs ismlari hijriy qamariy yilining Ramzon (9-oy), Rajab (7-oy) va Safar (2-oy) oylarida tug'ilgani uchun shunday ism sohibi bo'lishgan.

3) *bolaga holat bilan bog'liq ism qo'yish an'anasida*. Bola tug'ilishi paytida ota-ona qanday holatda bo'lganligi yoki bolaning tug'ilishi tabiiy hodisalar bilan to'g'ri

kelganligi ham bolaning ismiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, ota yoki ona safarga jo'nab turgan paytda yoki safar chog'ida chaqaloq dunyoga kelsa, unga *Safarbek, Safargul* kabi ism qo'yish; shuningdek, tabiatda bo'ron, to'polon hukumronlik qilib turgan paytda tug'ilgan bolaga *Bo'ronboy, To'palang* kabi ismlarni qo'yish otabobolarimizdan yetib kelgan an'analardan hisoblanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan an'analarda Taxor viloyati aholisi orasidagi o'nlab an'analardan eng mashhuri hisoblanadiki, ayni vaqtda barcha xalq vakillarida amalda qo'llanib kelmoqda.

2. Kishilarning orzu-umidlari vositasida bolalarga qo'yilgan ismlar. Shunday ismlar ham borki uning asosida otalarning orzu-umidlari yotadi. Ota-ona o'zlarining farzandini kimgadir o'xhashi, qandaydir yutuqlarga erishishi kabi orzularni orziqib bolasiga ism qo'yishadi. Bunday ism qo'yishni quyidagi turlari bor:

1) *mashhur tarixiy shaxslar nomini qo'yish*. Ota-ona o'z farzandiga bunday kishilarning nomini qo'yishi bilan, o'sha kishilardak bo'lishini orziqqanlar. Bu tarixiy shaxslar hukumdorlar, ilm-san'at va davlat arboblari bo'lishi mumkin. Masalan, *Otilo (Attila), Iskandar, Temur, Bobur, Navoiy, Ibni Siyno, Ulug'bek, Boyqaro, Behzod* kabi ismlar;

2) *doston qahramonlari ismini qo'yish*. Bunday ismlar qo'yishning tagida ham, otalarning orzu-havasi va tilaglari yotadi. Ona-onalar farzandiga badiiy asarlardagi qahramonlar ismini tanlash bilan, farzandini o'shalardek, qo'rqmas, dovyurak va ezilgan xalq manfaatlarining himoyachisiga aylanishi hamda qahramondagi insoniylik, xulq-atvor, nafosat va chiroyini o'z farzandida ko'rishni

⁴<https://gigafox.ru/uz/planirovanie-beremennosti/etimologiya-lichnyh-imen-proishozhdenie-i-znachenie-nekotoryh/>



orzu qilganlar. *Olpomish, Otabek, Farhod, Rustam, Suhrob, Kumush, Barchinoy, Shirin* kabilar ana shunday ismlardan;

3) *din peshvolari ismlarini qo'yish*. Bularga payg'ambarlar va ularning farzandlari, sahobalar, tobi'inlar, imomlar, mashhur din olimlari va qorilar ismlari kiradi. Bolaga bunday ismlarni qo'yishdan maqsad, farzandlarini ana shu buyuk kishilardek, taqvoli, imonli bo'lib yetishishi va din yo'lida xizmat qilishi orzu qilingan. Bunday ismlarga quyidagilar kiradi: *Sulaymon, Iyso, Muso, Horun, Luqmon, Muhammad, Usmon, Abubakr, Ali, Umar, Abu Hanifa, Abdulbosit, Fotima, Omina, Xadija, Havvo* va boshqalar;

4) *davrning mashhur kishilarining ismini qo'yish*. Ota-onalar o'zlari tirikchilik qilib turgan davrdagi qaysi bir xarakter-xususiyati bilan unga yoqgan mahalliy yoki xalqaro mashhur kishilarning nomini o'z farzandlariga qo'yishadi. Bunday kishilar prezidentlar, siyosatchilar, sportchilar, hunarmandlar, san'atkorlar bo'lishi mumkin. *Najib, Karzay, Do'stum, Ahmadshoh Mas'ud, Roshidxon, Muboriz, Nag'ama, Mahvash, Ahmadzohir, Sevinch* kabilar shunday ismlarga misol bo'ladi.

Farzand insoning kelajagi. Unga qo'yilgan ism ham kelajak kabi porloq va ishonchli bo'lishi kerak. Mana shu fikrlar yuqoridagi misollar majmuida o'z ifodasini topgan.

Ismlarning xalq qadriyatlarini asosida shakllanishi

Insoniyat tarixidagi juda muhim narsalardan biri qadriyat hisoblanadi. Qadriyat - narsa va voqealar, jamiyat, moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ifodalash uchun qo'llanadigan tushuncha.

Qadriyat "voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-

axloqiy, madaniy, ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, mas., erkinlik, tinchlik, adolat, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, modiy va ma'naviy boyliklar va boshqalar qadriyat hisoblanadi."⁵

Qadriyat deyilganda bashariyat uchun ahamiyatli bo'lgan va odamlar hayotida ro'y beradigan tabiat hodisalari, ijtimoiy voqealar, jamiyatdagi talablar, orzu-umidlar, an'ana va marosimlar, madaniy boyliklar singari fazilatlar majmui tushuniladi. Bundan tashqari, millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlari yo'lida xizmat qilishda katta ahamiyat kasb etgan halollik, burch-mas'ulliyatga sadoqatli, jasorat, e'tiqod, mehnakashlik hamda odamlar o'zlari ishonib, gohida intilib, qiziqib yoki orzu qilib yashaydigan maqsad, orzu yoki ideallar ham qadriyatga kiradi.⁶

Xullas, qadriyat kundalik hayotda bo'lib turadigan voqea-hodisalar, narsalardan tutib, avlodlardan bizga yetib kelgan urf-an'analr, ma'naviy-ma'rifiy boyliklar hamda kishilarning jasorat-qahramonliklari, ishonch-e'tiqodlari, mehnakashliklari kabilarni qamrab oladi.

Hayotimizdagi ko'pgina modiy va ma'naviy boyligimiz qadriyatga kirganidek, kishi ismlari va ularning qo'yilishi va vujudga kelishi ham qadriyatimizning katta qismini tashkil beradi. Har bir xalq ismlarida ularning *mardlik, jasorat, shujoat, ilmlik, hunarlik, tirishqoqlik* kabi qadriyatlari o'z aksini topadi va ularga asos bo'lgan so'z ma'nolarida jamlanadi. Shuning uchun biz

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдлик, 5-жилд, -Тошкент: "О'зМЕ", 2008. -207 б.

⁶ То'ланов J. Qadriyatlar falsafasi. -Toshkent: O'zbekiston, 1998. -336 б.



ismlarning xalq qadriyati zaminida shakllangan onomastik birliklardan biri deb baholadik. Masalan, Polvon, Qo'rqmas, Epchil, Ziyrak va boshqalar.

Taxor viloyati kishi ismlarini xalq qadriyati asosida shakllanganiga ko'ra tubandagi bandlarga bo'lish lozim ko'rildi:

- 1) *botirlikni ifoda qiladigan ismlar*. Ajdodlardan meros bo'lib kelgan jasorat, shujoat, qo'rqmaslik, bahodirlik, kurashchanlik, chidamlilik va davomlilik ma'nolarini o'zida tashiydigan ismlar *botirlikni ifoda qiladigan ismlarga* kiradi. Masalan, *Botur, Bobur, Bo'ri, Bo'riboy, Arslon, Asadullah, Sher, Polvon, Qo'rqmas, Yo'lbars, Toshqin, Temur, Shohin, Sherdil, Sheraliy, Shamsher, Qo'chqor, Qilich, Qaplonbek, Qilichboy, Qalqon, Qalqonbek, Jahongir, G'azanfar, Dilovar, Yashin, Cho'yanboy, Boybo'ri, Bo'riqul* va boshqalar;
- 2) *mehnatkashlikni ifodalaydigna ismlar*. Bu turdagi ismlarga xalqning maishiy hayoti, ayniqsa, ularning tirishqoqlik va mehnatkashligidan kelib chiqqan va shunday qadriyatlarining ifodalovchisi bo'lgan ismlarni kiritish mumkin. Bunday ismlarda xalqning ma'ishiy hayoti ularning ma'naviyat va ma'rifatiga ne qadar ta'sir etganligi yorqin namoyon bo'lib turadi. Bularga quyidagi ismlar kiradi: *Boltaboy, Dehqonboy, Bozorboy, Bo'ronboy* kabilar;
- 3) *xalqning e'tiqod va an'analari bilan bog'liq ismlar*. Har bir xalq qadriyatlarining bir qismini ularning ishonch-e'tiqodi tashkil etadi. Kishilar kimga va nimagadir ishonishgan, undan ko'mak tilab, orzu-tilaklari ushalishini so'rashgan. Biz bu holatni ko'pgina kishi ismlarida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Masalan, *Xudobaxsh, Xudoyberdi, Xudoynazar, Xudoyqul, Xo'jamqul, Tosh Muhammad, Tosh Temir, Toshbolta, Toshfulod, To'xtamurod, Temur,*

Tengriberdi, Tengriqul, Safarbek, Payg'ambarqul, Pirimqul, Oltiboy, Oqberdi, Navro'z, Mahkamtosh, Kenjabek, Do'stmuhammad, Egamberdi, Cho'yanboy, Dadaboy, Bo'riqul, Bo'taboy, Bobur, Boybo'ri, Allaberdi, Allazar, Allayor, Amonqul singarilar.

Shuni takidlash kerakki, salbiy ma'noli so'zlar sifatida ism sifatda qo'llanmasligi lozim. Lekin aholi orasida salbiy ma'noli ismlar uchrab turadi. Buning asosiy sababini - ota-onalar bolasiga tanlagan ismning ma'nosini bilmaganligida; yoki ataylab, salbiy ma'noli simni ezgu maqsadda qo'yilishida deb ta'bir qilishimiz mumkin. Birinchi holatni chet tillardan o'zlashtirilgan kishi ismlarida, Ikkinchi holatni esa, yirqich hayvonlar ismlari asosida shakllangan kishi ismlarida yaqqolroq ko'rish mumkin.

Ismlarning qaysi til elementlaridan shakllanganligi

Afg'oniston ko'p millatli mamlakat. Unda turli til guruhiga kiradigan 30dan ortiq xalq yashaydi.⁷ Ko'p hududlarda necha xalq vakillari qo'shni bo'lib tirikchilik qilishadi. Shu uchun bu xalqlar bir-biridan ta'sirlanib, qadriyatlari, urf-odatlar, umuman madaniyatlari aralashib ketgan hollar ham ko'p uchraydi. Mana shu aralashish natijasida, tillarda bir-birlaridan so'z qarz olish hodisasi yuz bergan.

Bilamizki, turli xalqlar madaniyatlari o'rtasidagi aloqalarning mavjudligi nomlarning yaratilishida ham namoyon bo'ladi. Shunday holatni Taxor viloyatida yashovchi xalqlarning ismlarida ko'rish mumkin. Ko'pgina o'zbeklar borki, ismlari

⁷ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1-jild, - Toshkent: "O'zME", 2000. -523-524-betlar.



forscha, pustucha. Shuningdek, ayrim fors-tojik va pushtun xalqlari vakillarining ismlari o'zbekcha. Menga ko'ra, bunday holatning yuzaga kelishining yagona sababi, xalqlar madaniyatlari va tillari o'rtasidagi aloqalarning juda yaqinligi va inoqligidadir.

Taxor viloyatidagi ismlar *qaysi til leksik va morfologik birliklaridan* tashkil topganligiga ko'ra: 1) *pushtucha ismlar*; 2) *o'zbekcha ismlar*; 3) *forscha ismlar*; 4) *arabcha ismlar* va 5) *kelib chiqishi noma'lum ismlar* kabi turlarga bo'linadi. Quyida harbirni alohida ko'rib chiqamiz.

1. Pushtucha ismlar. Afg'oniston Islom Respublikasida yashovchi xalqlardan biri bu - pushtunlar. Pushtun xalqi bugungi kunda ozu ko'pligidan qatii nazar, taqriban Afg'onistonning hamma viloyatlarida yashaydi, jumladan, Taxor viloyatida ham. Boshqa xalqlardek, pushtun xalqi ham o'ziga xos til, urf-odat, madaniyat va qadriyatlarga ega.

Madaniyat, qadriyat va an'anani o'zida aks etadigan narsalardan biri shubhasiz bu - ismdir. "Pushtucha ismlar" deb nom qo'yilib o'rganilayotgan ismlar, pushtun xalqining tili va madaniyatidan kelib chiqqan, sug'orilgan nomlardir. Bu nomlar ko'proq pushtunlar orasida qo'llansa-da, Afg'onistonda, ayniqsa, Taxor viloyatida yashovchi boshqa xalq vakillari, jumladan o'zbeklar orasida, oz bo'lsa ham uchraydi.

Taxor viloyati *kishi ismlari* tizimida ko'p va tez-tez uchrab turadigan pushtucha ismlardan misol: *Birishno, Vokman, Ningyolay, Musko, Mayvand, G'arzay, Afg'on, Songa, Ponga, Mina, G'utay, Zimaray, Zilgay, Abosin, Zadron, Takal, Amel, Anzur, Uryo, Paxtun, Imal, Babrak, Baxtavar, Hutak, Husay, Yun, Patman, Xando, Zarlashda, Ispuzdmuy, Zadron, Mangal, G'urzang,*

Shopiray; Pochoxon, Gulpocho, Jumagul, Gulg'utay, Gulolay, Chinorgul va boshqalar.

2. O'zbekcha ismlar. Hammaga ma'lumki, har bir xalq o'ziga xos qadriyat, urf-odat, an'ana va boshqa bir qator xosliklarga ega. Ana shunday xosliklardan biri ham ismdir. O'zbekcha ismlar deganimizda, o'zbek xalqiga xos bo'lgan ismlar nazarda tutiladi. Demak, o'zbek tili lug'at tarkibining o'z qatlamidan tanlangan ismlar. Bunday ismlarga umumturkiy ismlar ham kiradi. Chunki o'zbek xalqi va uning tili ham turkiylarning ajralmas bir qismidir. Bu ismlar uzoq zamonlardan biri xalqimiz tomonidan qo'llanilib kelgan ismlardir. Boshqacha qilib aytganimizda, ajdodlarimiz ismidir.

Taxor viloyati antroponimlarini o'rganar ekanmiz, o'zbek xalqi va o'zbeklar bilan birga yashovchi boshqa xalq vakillari tomonidan qo'yiladigan o'zbekcha ismlar borligiga ham guvoh bo'ldik. Bunday ismlarni asosan o'zbeklar qo'llashsa-da, oz bo'lsa ham boshqa xalq vakillarida ham uchratdik.

Kuzatishlarimiz davomida boshqa til unsurlari ishtirokidan (o'zbekcha+..., ...+o'zbekcha) tashkil topgan o'zbekcha ismlarni ham uchratdik. Bizningcha, bunday holatning yuzaga kelishining tagida *ta'sirlanish* yotadi. Ta'sirlanishni yuzaga keltirgan omillar: *uzoq zamonlardan beri xalqimizning boshqa xalq vakillari bilan qo'shnilikda yashab kelishi, tillarning ta'siri, Islom dini* kabilardir. Masalan, o'zbekcha-forscha, forscha-o'zbekcha ismlarning shakllanishiga bu ikki xalqning uzoq zamonlardan beri bir hududda yashab kelganligi sababchi bo'lsa, o'zbekcha-arabcha, arabcha-o'zbekcha ismlarning vujudga kelishining asosiy omili Islom dini bilan bog'liq. Tillar ta'siri esa ikkala holat



uchun mushtarak omil sanaladi. Shundan kelib chiqib o'zbekcha ismlar: 1) *sof o'zbekcha ismlar*; 2) *o'zbekcha-forscha ismlar*; 3) *forscha-o'zbekcha ismlar*; 4) *o'zbekcha-arabcha ismlar*; 5) *arabcha-o'zbekcha ismlar* kabi kichik guruhlarga bo'lindi.

Quyida har birini alohida ko'rib chiqamiz:

1) *sof o'zbekcha ismlar*: *Botur, Oydin, Qilich, Arslon, Oyxonim, Oychechak, To'lqin, So'lmas, Sevinch, Sevara, Sevgi, Quvonch, Ulug'bek, Boltabek, Qamchinboy, Barchinoy, Tursun, Temur, Bo'ri, Ergash, Jo'ldosh (Yo'ldosh), Erkin, To'g'ri, Uyg'oq, Jaylon, Jaylav, O'raz, Bek, Kumush, Go'zal, Yulduz, Oltoy, Boyqaro, Ko'ngil, Ezgu, To'ra, Ochil, Sulu, Yo'lbars, Begim, Chebar, Hulkar, Oltin, Yo'lchi, O'tkir, Uchqun, Yarash, Oylar, Baktosh, Cho'lpon, Ergash, Inoq, Jo'ra, Kenja, Ko'char, O'sar, O'tkir, O'zbek, Oyil, Qalqon, Qo'chqor, Tesha, Tilav, To'ra, To'ychi, Toshqin, Turdi, Xidir, Yashar, Yashin, Bibinoy, Tag'aybek, Oyxon, Oygiz, Oychechak* kabilar;

2) *o'zbekcha-forscha ismlar*: *Oygu, Oynoz, Oyimgul, Oyimxol, Toshfulod, Tag'ayxo'ja, Oyjon, Ortiqxo'ja* singlarlar;

3) *forcha-o'zbekcha ismlar*: *Jonibek, Gulbarchin, Guloy, Do'stum (Do'stim), Eshonqul, Payg'ambarqul, Nozli, Xudoyberdi, Xudoyqul, Jo'rabek, Pirimqul* va boshqalar;

4) *o'zbekcha-arabcha ismlar*: *Oynur, Oyjamol, Oynoz, Toshmuhammad, Oqmuhammad, Oqmurod, Oqniyoz, Tag'aymurod, Tag'aynazar* kabilar;

5) *arabcha-o'zbekcha ismlar*: *Mahkamtosh, Qodirbek, Nurbek, Aliqul, Alibek, Mustafoqul, Muhammadqul, Amonqul, Haqberdi, Mardonqul, Nurota, Rahimberdi, Rahmonqul, Safarbek* va boshqalar.

3. Forscha ismlar. O'zbek xalqi bilan azaldan et-tirnoq kabi yaqin va inoq yashab

kelgan xalqlardan biri bu - fors-tojik xalqidir. Afg'oniston aholisining muayyan bir qismini ham fors-tojik xalqi vakillari tashkil beradi. Mamlakatning bir qancha viloyatlari, jumladan Taxor viloyatida ham tojiklar yashab kelmoqda.

Afg'onistonda fors-tojik-dari tili keng miqyosda gapirilishi, ko'cha-bozor tili, maktab tili, davlat tili bo'lganligi uchun boshqa xalq vakillariga o'z ta'sirini o'tkazgan. Lekin, o'zbek xalqi qadimdan fors-tojik xalqining tili, adabiyoti va madaniyati bilan chuqur tanish bo'lganligi uchun bo'lsa kerak, boshqalarga nisbatan ko'proq, fors-tojik xalqining tili va ismlari bilan yaqindan tanish va ko'proq ta'sirlangan. Shu uchun fors-tojik ismlari o'zbeklar orasida keng ko'lamda qo'llangan va qo'llanmoqda.

Ushbu tadqiqotimiz jarayonida biz uchratgan forscha ismlardan namuna: *Firdavs, Jamshid, Siyovash, Rustam, Suhrob, Ozraxsh, Ozar, Odina, Orzu, Orash, Ormin, Oriyo, Orvin, Pariyso, Mohgul, Mohjabin, Osuda, Ardasher, Ardalon, Isfandiyor, Ashkon, Afruz, Afsun, Afsona, Afshin, Po'yo, Bahman, Porso, Buzurgmehr, Binafsha, Bahrom, Biheshta, Rodfar, Romish, Romin, Dodfar, Mahnush, Mahro', Mahvash, Ruxsor, Parvin, Bobur* va boshqalar.

4. Arabcha ismlar. Ism qo'yishda dinning ta'siri, ayniqsa, kuchli bo'ladi. Xristianlik vujudga kelib, monoistik dinga aylanganidan keyin Bibliyadagi payg'ambarlarning ismlari jahondagi ko'pgina xalqlarda ommaviy ism bo'lib qoldi. Islom dinining tarqalishi Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbeklarda bu din tushunchalari bilan bog'liq ismlarning ko'payishiga olib keldi. Xalq(imizda) Qur'oni karimda tilga olingan Allohning go'zal ismlarini (al-Asmo al-husno),



Muhammad(sav)ning nomlarini o'z farzandlariga qo'yish⁸ shu bilan birga sahobalar, tobi'inlar, ulamolar, qorilar va boshqa diniy shaxsiyatlarning nomlarini kelajak avlodga nom sifatida tanlash rasm bo'lib qoldi.

Shulardan kelib chiqib aytish mumkin, ko'pingina xalqlar, ayniqsa, musulmonlar uchun arabcha ismlar notanish emas. Chunki arab tili ham, arabcha ismlar ham, Islom dini bilan birga musulmonlarning tiliga kirib kelgan va o'z ta'sirini qoldirgan. Demak, bunday so'z-ismlarning tarixi kamida bugundan 10 (o'n) asr oldinga borib taqaladi.

Afg'oniston xalqi ham musulmon xalq. Bular ham boshqa musulmon xalqlardek, Islom dinini qabul qilish bilan birga, arabcha ismlarni ham bimalol qabul qilishgan. Bugungi kunda aholi nomining katta qismini shaksiz arabcha ismlar tashkil beradi. Demak, bu 1000 (ming) yildan beri davom etib kelayotgan an'ananing natijasi. Arabcha ismlar Taxor viloyati aholisi antroponimlari qatorida katta o'ringa ega. Aholining ko'p qismi, ayniqsa, savosiz otalar, o'z bolasiga qo'yadigan, asosan, qo'yiladigan ismning ma'nosini bilishmaydi, hato talaffuz qilishda ham qiynalishadi. Chunki, ko'p hududlarda, xususan, qishloqlarda, dunyoga kelgan bolaga mulla-imomlar nom qo'yish an'anasi bor. Mulla-imom chaqaloqning qulog'iga azon aytib unga bir ism berdimi, o'sha ism bolaning ismi bo'lib ketaberadi. Buning asosiy sababi, dinning ta'siri hamda musulmon xalqning dinga va din olimlari, jumladan, mulla-imomlarga ixlos-ishonchi ko'pligidan kelib chiqadi.

Taxor viloyati antroponimlardan tanlangan quyidagi arabcha ismlar, butun Afg'onistonda turli xalq vakillari orasida birdik istifoda bo'ladigan ismlar desak, xato qilmagan bo'lamiz: *Najbulloh, Ismatulloh, Nurulloh, Abdulloh, Asadulloh, Abdulg'aniy, Abdulkarim, Abduljabbor, Abdulhalim, Aminulloh, Muhammad Karim, Muhammad Olim, Muhammad Zohir, Muhammad Xoliq, Najmuddin, Karimulloh, Nabiulloh, Fazlulloh, Zikrulloh, Ubaydulloh, Nasratulloh, Alovuddin, Ayniddin, Muhammad Anvar, Fayzulloh, Muhammad Tohir, Muhammad Qosim, Muhammad Solim, Aliy Ahmad, Habibulloh, Muhammad Nazir, Muhammad Yosin, Muhammad Hanif, Fotima, Zaynab, Ruqiya, Omina, Mahjuba, Xadija, Havvo, Jamila, Komila, Najiba, Nabiya, Fozila, Madina, Sultona, Odila, Shokira, Abdurrashid, Nojiya, Shikiybo* va boshqalar.

5. Kelib chiqishi noma'lum bo'lgan ismlar. Afg'oniston aholisi orasida yuqorida sanab o'tilgan ismlardan tashqari, kelib chiqishi ma'lum bo'lmagan ismlar ham ishlatiladi. Bunday ismlar qaysi tildan o'zlashgani aniq ma'lum emas. Lekin ularning aytilishi, qisman ma'nosi xalqqa tanish. Yuqoridagi ism turlariga nisbatan, bunday ismlar juda ozchlikni tashkil etadi. Kelib chiqishi noma'lum bo'lgan ismlar, oz bo'lsa ham, Taxor viloyati antroponimlaridan o'ziga xos o'rn egallagan. Misollar: *Anohito, Valantino, Yaldo, Sivito, Suniyo, So'nam, Ozito, Pardis, Diyono, Domina, Mitro, Uronus, Sharmilo, Parmilo, Aniylo, Injilo, Leno*.

Misollarda ko'rganimizdek, bu tur kishi ismlari ko'proq ayollar ismlarida uchraydi.

⁸ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 4-jild, - Toshkent: "O'zME", 2002. -246-b.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. -Toshkent: Fan, 2013.
2. Gökyay O. Ş. *Dedem Korkudun kitabı*. Birinci Basım. -İstanbul: Kabalcı Yayınevi, 2007, -28, 60, 62 s.
3. İnan A. *Tarihte ve bugün Şamanizm*. -Ankara: TDK Yayınları, 1972, -173 s.
4. Ismatov Jonibek. *Antroponimlar lingvistik tadqiqot obyekti sifatida..* Markaziy Osiyoda leksikologiya va leksikografiya: An'analar va hozirgi zamon ilmiy